



Ijtimoiy pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari

Abdug'aniyeva Madinaxon –
“University of economics and pedagogy” NOTM
“Maktabgacha ta'lim” kafedrası o'qituvchisi
E-mail: abduganiyevamadi2020@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-3323-2327>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari, uning mustaqil fan sifatida shakllanish jarayoni hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy pedagogika fanining vujudga kelish omillari, konseptual yondashuvlari va taraqqiyot bosqichlarini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Natijalar ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishida jamiyat ehtiyojlari, ijtimoiy muhit va ta'lim tizimidagi o'zgarishlar muhim omil bo'lganligini ko'rsatdi. Shuningdek, fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tavsiflandi. Xulosa sifatida, ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslarini chuqur o'rganish zamonaviy ijtimoiy-pedagogik muammolarni samarali hal etishga xizmat qilishi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy pedagogika, ilmiy-nazariy asoslar, rivojlanish bosqichlari, ijtimoiylashuv, pedagogik faoliyat, ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi, tarixiy taraqqiyot, konseptual yondashuv, ijtimoiy tarbiya, metodologiya, pedagogik nazariya.

Научно-теоретические основы и этапы развития социальной педагогики

Аннотация. В данной статье проанализированы научно-теоретические основы социальной педагогики, процесс её становления как самостоятельной науки и основные этапы развития. Цель исследования заключается в научном обосновании факторов возникновения социальной педагогики, её концептуальных подходов и этапов эволюции. В ходе исследования использовались методы исторического анализа, сравнительного исследования, системного подхода и анализа научной литературы. Полученные результаты показали, что важными факторами развития социальной педагогики выступают общественные потребности, особенности социальной среды и изменения в системе образования. Также охарактеризованы основные этапы развития науки и их специфические особенности. Сделан вывод о том, что углублённое изучение теоретических основ социальной педагогики способствует эффективному решению современных социально-педагогических проблем.

Ключевые слова: социальная педагогика, научно-теоретические основы, этапы развития, социализация, педагогическая деятельность, социальная среда,

система образования, историческое развитие, концептуальный подход, социальное воспитание, методология, педагогическая теория.

Scientific and theoretical foundations and stages of development of social pedagogy

Annotation. *This article examines the scientific and theoretical foundations of social pedagogy, the process of its formation as an independent discipline, and the stages of its development. The purpose of the study is to analyze the factors contributing to the emergence of social pedagogy, its conceptual approaches, and developmental stages from a scientific perspective. Historical analysis, comparative analysis, a systematic approach, and the analysis of scientific literature were employed as research methods. The findings indicate that social needs, the social environment, and transformations in the educational system have significantly influenced the development of social pedagogy. Furthermore, the major stages of the discipline's evolution and their distinctive characteristics were identified. It is concluded that a profound understanding of the theoretical foundations of social pedagogy contributes to the effective resolution of contemporary socio-pedagogical issues.*

Keywords: *social pedagogy, scientific-theoretical foundations, stages of development, socialization, pedagogical activity, social environment, educational system, historical development, conceptual approach, social education, methodology, pedagogical theory.*

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayoni, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, yoshlar tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillarning ko'payishi hamda jamiyatning ijtimoiy buyurtmalari ijtimoiy pedagogika fanining nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash, uning jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar bilan ishlash, oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini samarali tashkil etish masalalari ijtimoiy pedagogikaning dolzarb tadqiqot yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ijtimoiy pedagogika insonning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy tarbiyasi va ijtimoiy moslashuvi qonuniyatlarini o'rganuvchi mustaqil fan sifatida jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida shakllanib borgan. Mazkur fan pedagogika, sotsiologiya, psixologiya, falsafa, huquqshunoslik kabi fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib, shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks o'rganishga xizmat qiladi. Biroq, ijtimoiy pedagogikaning shakllanish tarixi, uning ilmiy-nazariy asoslari hamda rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar yetarli darajada umumlashtirilmaganligi kuzatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ijtimoiy pedagogikaning ayrim nazariy jihatlarini, ijtimoiy tarbiya masalalari va ijtimoiy-pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan bo'lsa-da, ushbu fanning rivojlanish bosqichlarini tarixiylik va izchillik tamoyillari asosida yaxlit tizim sifatida yoritishga oid ilmiy izlanishlar cheklangan. Xususan, zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslarini qayta ko'rib chiqish, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda amaliy faoliyat bilan bog'liqligini asoslash zarurati mavjud. Mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiy pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish, uning mustaqil fan sifatida shakllanish omillarini aniqlash hamda rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan tavsiflashdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: ijtimoiy pedagogika fanining vujudga kelishiga oid nazariy qarashlarni o'rganish; ijtimoiy pedagogikaning ilmiy-metodologik asoslarini tahlil qilish; mazkur fanning rivojlanish bosqichlarini tarixiy nuqtai nazardan tavsiflash; ijtimoiy pedagogika taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash hamda zamonaviy sharoitda fanning rivojlanish istiqbollarini yoritish. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ijtimoiy pedagogika fanining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda umumlashtirish hamda zamonaviy ijtimoiy-pedagogik faoliyatni takomillashtirishga oid ilmiy xulosalarni shakllantirish bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish jarayonida mazkur fan rivojiga hissa qo'shgan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Xususan, G.Noll, P.Natorp, A.Disterveg, G.Gertruda Boymer kabi nemis olimlari ijtimoiy pedagogikani mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllantirishga katta hissa qo'shganlar. P.Natorp ijtimoiy pedagogikani insonni jamiyat bilan o'zaro munosabatlar tizimida tarbiyalashni o'rganuvchi fan sifatida talqin etib, barcha pedagogik jarayonlarning ijtimoiy mohiyatini asoslab bergan. Uning fikricha, insonni tarbiyalash jamiyatdan tashqarida amalga oshirilishi mumkin emas va har qanday tarbiya ijtimoiy xarakter kasb etadi.

Rus pedagogika maktabi vakillari V.G.Bocharova, A.V.Mudrik, M.A.Galaguzova, L.V.Mardaxayev va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari, tamoyillari, funksiyalari hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni keng yoritilgan. A.V.Mudrik tomonidan ilgari surilgan ijtimoiylashuv konsepsiyasi shaxs rivojlanishida mikro, mezo va makroomillarning o'rnini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qilgan. M.A.Galaguzova esa ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlash texnologiyalarini tadqiq etgan. O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida ham ijtimoiy pedagogik muammolarning turli jihatlarini yoritilgan. Ular tomonidan milliy qadriyatlar asosida tarbiya, oila va mahalla hamkorligi, yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlarini tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tarixiy-tahliliy metod yordamida ijtimoiy pedagogikaning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari o'rganildi hamda fanning taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan omillar aniqlandi. Qiyosiy-tahliliy metod asosida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari o'zaro solishtirildi, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarini ochib berildi. Tizimli yondashuv metodi orqali ijtimoiy pedagogika yaxlit ilmiy tizim sifatida tahlil qilinib, uning tarkibiy qismlari va o'zaro bog'liqligi yoritildi. Shuningdek, ilmiy manbalarni o'rganish va umumlashtirish metodlari asosida monografiyalar, darsliklar, ilmiy maqolalar hamda dissertatsiya tadqiqotlaridagi nazariy qarashlar tahlil qilinib, tegishli ilmiy xulosalar shakllantirildi. Qo'llanilgan metodlar tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritish, ijtimoiy pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslarini tizimlashtirish va uning rivojlanish bosqichlarini izchil tavsiflash imkonini berdi. Natijada mazkur fan taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari hamda zamonaviy ijtimoiy-pedagogik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari ijtimoiy pedagogikaning uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli ekanligini hamda uning shakllanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. O'rganilgan ilmiy manbalar asosida ijtimoiy pedagogika rivojlanishini shartli ravishda bir necha bosqichlarga ajratish mumkinligi aniqlandi. Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari, maqsadi va ijtimoiy-pedagogik faoliyatga ta'siri mavjudligi kuzatildi. Birinchi bosqich – **ijtimoiy tarbiya g'oyalarining shakllanish davri** bo'lib, qadimgi davrlardan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ushbu davrda shaxsni jamoa manfaatlari asosida tarbiyalash, axloqiy qadriyatlarni singdirish va ijtimoiy tajribani avlodlardan avlodga

yetkazish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy tarbiya g'oyalari Sharq mutafakkirlari hamda G'arb faylasuflari qarashlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, ijtimoiy pedagogika hali mustaqil fan sifatida shakllanmagan edi.

Ikkinchi bosqich – **ijtimoiy pedagogikaning ilmiy yo'nalish sifatida shakllanish davri** bo'lib, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda nemis olimlari tomonidan "ijtimoiy pedagogika" atamasi ilmiy muomalaga kiritildi. P.Natorp inson tarbiyasining ijtimoiy mohiyatini asoslab, pedagogik jarayonning jamiyat bilan o'zaro aloqadorligini ilmiy jihatdan izohlab berdi. Natijada ijtimoiy pedagogika mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etila boshladi.

Uchinchi bosqich – **ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi va institutsionallashuvi davri** bo'lib, XX asrning o'rtalarini o'z ichiga oladi. Bu davrda ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari, tamoyillari, metodlari va funksiyalari takomillashtirildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, muammoli oilalar va turli ijtimoiy guruhlar bilan ishlashning pedagogik texnologiyalari ishlab chiqildi. Shuningdek, ijtimoiy pedagoglarni tayyorlash tizimi shakllana boshladi.

To'rtinchi bosqich – **zamonaviy rivojlanish bosqichi** bo'lib, XXI asrni qamrab oladi. Mazkur bosqichda globallashtirish, migratsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida yangi ijtimoiy-pedagogik muammolar yuzaga keldi. Kiberbulling, internet qaramligi, yoshlarning ma'naviy xavfsizligi, inklyuziv ta'lim va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish kabi masalalar ijtimoiy pedagogikaning dolzarb tadqiqot yo'nalishlariga aylandi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari quyidagicha tizimlashtirildi.

1-jadval

Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Rivojlanish bosqichi	Davriy chegarasi	Asosiy mazmuni	Muhim xususiyatlari
Ijtimoiy tarbiya g'oyalarining shakllanishi	Qadimgi davr – XIX asr	Tarbiyaning ijtimoiy mohiyatiga oid qarashlarning paydo bo'lishi	Axloqiy tarbiya va jamoaviy qadriyatlarining ustuvorligi
Ilmiy yo'nalish sifatida shakllanish	XIX asr oxiri – XX asr boshi	"Ijtimoiy pedagogika" tushunchasining ilmiy muomalaga kirishi	Fan sifatida nazariy asoslarning yaratilishi
Institutsionallashuv va rivojlanish	XX asr o'rtalari	Kategoriya va metodlarning takomillashuvi	Kasbiy faoliyat tizimining shakllanishi
Zamonaviy taraqqiyot bosqichi	XXI asr	Yangi ijtimoiy muammolarga moslashuv	Raqamlashtirish, inklyuziya va innovatsion yondashuvlar

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy pedagogika rivojlanishining har bir bosqichi muayyan tarixiy sharoit va jamiyat ehtiyojlari bilan belgilanadi. Fan taraqqiyoti ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi, ta'lim tizimidagi islohotlar hamda inson manfaatlariga qaratilgan davlat siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Muhokama jarayonida ayrim muammoli jihatlar ham aniqlandi. Xususan, ijtimoiy pedagogika bo'yicha mavjud tadqiqotlarda fanning rivojlanish bosqichlari turlicha talqin qilinishi, ayrim nazariy yondashuvlar o'rtasida tafovutlarning mavjudligi kuzatildi. Shuningdek, zamonaviy ijtimoiy tahdidlar sharoitida ijtimoiy pedagog faoliyatining mazmuni va funksiyalarini qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud. Bu esa fanning metodologik asoslarini boyitish, amaliy faoliyatga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda milliy tajribani xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashtirishni talab etadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijasida ijtimoiy pedagogika insonning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy tarbiyasi qonuniyatlarini o'rganuvchi mustaqil fan sifatida uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi aniqlandi. Fan rivojlanishining asosiy bosqichlari tizimlashtirilib, ularning har biri o'ziga xos ilmiy-nazariy mazmun va amaliy ahamiyatga egaligi asoslab berildi. Tahlillar ijtimoiy pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishiga jamiyat ehtiyojlari, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, ijtimoiy muammolarning murakkablashuvi hamda insonparvarlik g'oyalarining rivojlanishi bevosita ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, zamonaviy bosqichda fan oldida yoshlarning ijtimoiy himoyasi, raqamli xavfsizlik, inklyuziv ta'lim, kiberbulling profilaktikasi va ma'naviy tarbiya bilan bog'liq yangi vazifalar yuzaga kelayotganligi aniqlandi. Ijtimoiy pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish va uning rivojlanish bosqichlarini tizimli tahlil qilish zamonaviy ijtimoiy-pedagogik faoliyatni takomillashtirish, ijtimoiy pedagoglarni kasbiy jihatdan tayyorlash hamda ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarni samarali hal etish uchun muhim ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida ijtimoiy pedagogika sohasida milliy tajribani xalqaro yondashuvlar bilan integratsiyalash, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish va yangi ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2009. – С. 363.
2. Бочарова В.Г. Педагогика социальной работы. – М.: СВР-АРГУС, 1994. – С. 208.
3. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – T.: «Fan va texnologiya», 2009. – B. 256.
4. Фролов И.Т. (под ред.). Философский словарь. – 7-е изд., перераб. и доп. – М.: Республика, 2001. – С. 719.
5. Галагузова М.А. Социальная педагогика: учебник для студентов высших учебных заведений / под ред. М.А. Галагузовой. – М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2008. – С. 416.
6. Галагузова Ю.Н., Дорохова Т.С. История социальной педагогики: учебное пособие. – М.: ВЛАДОС, 2013. – С. 287.
7. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika: oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2011. – B. 512.
8. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T.: «Universitet», 1999. – B. 94.
9. Мардахаев Л.В. Социальная педагогика: учебник. – М.: Гардарики, 2005. – С. 269.
10. Мудрик А.В. Социализация человека: учебное пособие для студентов высших учебных заведений / А.В. Мудрик. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательский центр «Академия», 2006. – С. 304.
11. Наторп П. Социальная педагогика. Теория воспитания воли на основе общности. – Санкт-Петербург: Издательство О.Н. Поповой, 1911. – С. 360.
12. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: «Nasaf», 2000. – B. 183.